

## BUXORO ADABIY MUHITINING SHAKLLANISHI

Sodiqova Dilorom Tursunovna,

Buxoro davlat universiteti

O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, f.f.f.d (PhD)

G-mail: [sodiqovadilorom1@gmail.com](mailto:sodiqovadilorom1@gmail.com).

ORSID: 0009-0000-9567-2528

**Annotatsiya.** Buxoro adabiy muhiti qadimdan Markaziy Osiyoning muhim ilmiy va madaniy markazlaridan biri sifatida shakllandi. XVI–XIX asrlarda Buxoro xonligi davrida adabiy hayot rivojlandi, ijodkorlar axloq, ma'rifat va inson kamoloti mavzularini yoritdilar. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida jadidchilik ta'sirida adabiyotda milliy uyg'onish va ma'rifatparvarlik g'oyalari kuchaydi. Maqolada Buxoro adabiy muhiti o'zbek adabiyoti taraqqiyotidagi muhim xususiyatlari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** adabiy muhit, taraqqiyot, ijtimoiy-siyosiy, adabiy-madaniy hayot, sohibdevon, lirika, janr.

**Аннотация.** Литературная среда Бухары с древних времён формировалась как один из важных научных и культурных центров Центральной Азии. В период Бухарского ханства XVI–XIX веков литературная жизнь активно развивалась, а творчество писателей и поэтов было посвящено темам нравственности, просвещения и духовного совершенства человека. В конце XIX — начале XX века под влиянием джадидизма в литературе усилились идеи национального пробуждения и просветительства. В статье освещаются важные особенности бухарской литературной среды в развитии узбекской литературы.

**Ключевые слова:** литературная среда, развитие, общественно-политическая жизнь, литературно-культурная жизнь, поэты-сахибдиваны, лирика, жанр.

**Annotation.** The literary environment of Bukhara has long been recognized as one of the major scientific and cultural centers of Central Asia. During the period of the Bukhara Khanate in the 16th–19th centuries, literary life flourished, and writers focused on themes of morality, enlightenment, and human perfection. In the late 19th and early 20th centuries, under the influence of the Jadid movement, the ideas of national awakening and enlightenment became stronger in literature. The article highlights the significant features of the Bukhara literary environment in the development of Uzbek literature.

**Keywords:** literary environment, development, socio-political, literary and cultural life, poet possessing a divan (collection of poems), lyric poetry, genre.

**Kirish.** Adabiyot insonning dardlarini, malhamlarini davolovchi mukammal vositasidir. Azal-azaldan xalqlar, millatlar o'zlariga yupanch istab aksar hollarda adabiyotga oshno tutinganlar. Ma'lumki, adabiyotshunoslikda o'z e'tiqodiy qarashlariga tayanib, ilohiy-irfoniy, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy, axloqiy-ta'limiy qarashlarini badiiy aks ettirgan ijodkorlar asarlariga oid salmoqli tadqiqotlar yaratilgan. Biroq ularning aksariyati o'z davridayoq badiiy barkamol asarlari bilan she'riyat ixlosmandlari qalbiga kirib borgan bo'lsa-da, adabiy merosi uzoq yillar davom o'rganilmadi. Ayni paytda bunday sohibdevon shoir-u shoiralari poetik mahoratini birlamchi manbalar asosida ilmiy o'rganish adabiyotshunoslar diqqatini o'ziga jalb etib kelmoqda.

Yangi O'zbekistonda uchinchi Renessans poydevori yaratilishi munosabati bilan Buxoro adabiy muhitida shakllanib, o'zbek va tojik tillarida ijod etgan iste'dodli ijodkorlar merosini o'rganishga keng yo'l ochildi. Zero, muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev e'tirof etganlaridek: "Adabiyot xalqning yuragi, elning ma'naviyatini ko'rsatadi. Bugungi

murakkab zamonda odamlar qalbiga yo‘l topish, ularni ezgu maqsadlarga ilhomlantirishda adabiyotning ta’sirchan kuchidan foydalanish kerak. Ajdodlar merosini o‘rganish, buyuk madaniyatimizga munosib buyuk adabiyot yaratish uchun hamma sharoitlarni yaratamiz”.[1]

**Adabiyotlar tahlili.** Mavzu bo‘yicha adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, Buxoro adabiy muhiti o‘zbek adabiyotshunosligida keng o‘rganilgan muhim yo‘nalishlardan biridir. I. Adizova o‘z asarida mumtoz adabiyot taraqqiyotida Buxoro adabiy muhitining o‘rnini yoritadi va uning janrlar rivojiga qo‘shgan hissasini ta’kidlaydi.

O. Safarov tadqiqotlarida esa Buxoro adabiy harakatchiligi, ijodiy muhit va tarixiy-madaniy jarayonlar tahlil qilinadi. Shuningdek, Prezident Sh. M. Mirziyoyev nutqlarida adabiyot va merosni o‘rganishning dolzarbligi alohida qayd etilgan.

Umuman olganda, mavjud manbalar Buxoro adabiy muhitining boy tarixga ega ekanini tasdiqlaydi, biroq ayrim ijodkorlar merosini yanada chuqurroq o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ushbu tadqiqotda Buxoro adabiy muhiti shakllanishini o‘rganish uchun kompleks lingvistik va adabiyotshunoslik yondashuv qo‘llanildi. Asosiy metodlar sifatida tarixiy-qiyosiy, tavsifiy, tahliliy va kontekstual usullar tanlandi.

Tarixiy-qiyosiy metod Buxoro adabiy muhitining turli tarixiy davrlardagi rivojlanish bosqichlarini aniqlash va ularni o‘zaro solishtirish imkonini berdi. Tavsifiy metod orqali adabiy jarayonlar va ijodkorlar faoliyati tizimli ravishda bayon qilindi. Tahliliy metod esa adabiy asarlar va manbalardagi g‘oyaviy-badiiy xususiyatlarni chuqur o‘rganishga xizmat qildi. Kontekstual yondashuv yordamida adabiy muhit vakillarining ijodi o‘z davrining ijtimoiy, siyosiy va madaniy sharoitlari bilan bog‘liq holda tahlil qilindi. Shuningdek, manbaviy tahlil asosida tarixiy asarlar, tazkiralalar va ilmiy adabiyotlar o‘rganildi.

**Tahlillar va natijalar.** Buxoro yurtimizning eng qadimiy go‘shalaridan biri bo‘libgina qolmay, balki ilm-fan, san‘at, xususan, adabiyot keng taraqqiy topgan tamaddun beshigidir. Turli davrlarda mazkur hududda dunyoga kelgan, ijod qilgan adiblar, fozil-u fuzalolar tarix zarvaraqlarida tengsiz durdonalarni bitib qoldirganlar. Azaldan bu qadim shaharda ko‘plab madrasalar, kutubxonalar va madaniy inshootlar mavjud bo‘lib, ular orqali adabiyot va ilm-fan rivojlangan. Shu nuqtayi nazardan Buxoro adabiy muhiti o‘zining boy ichki ijodiy merosi, milliy va ma’naviy qadriyatlarini bilan ajralib turadi.

Islom dini g‘oyalari Buxoro ijtimoiy hayotida yetakchi mavqe’da turgan. Shu bilan birga, san‘at, hunarmandchilik, adabiyot ham o‘z yo‘lida taraqqiy etgan. Manbalarda Buxoro islomiy madaniyatning markazlaridan biri sifatida e’tirof etiladi. Asrlar davomida sharif Buxoroning ijtimoiy-siyosiy va adabiy-madaniy hayotida ilohiy-irfoniy g‘oyalar yetakchi mavqeda turgan. Imom al-Buxoriy, Abduxoliq G‘ijduvoni, Bahouddin Naqshband kabi buyuk muhaddislar, faqih-u mutasavvufklar shu zaminda tug‘ilib, voyaga yetganlar, islom dini va tasavvuf ravnaqiga o‘zlarining munosib hissalarini qo‘shganlar. Buxoro adabiy muhitida yaratilgan asarlarda asosan diniy tushunchalar ustuvorlik qiladi.

Ijodkorlar asarlarida Navoiy, Fuzuliy, Bedil, Hofiz kabi shoirlar an'analari davom ettirilib, janrlar taraqqiyotida ma'lum o'zgarishlar kuzatiladi. Jumladan, g'azal, muxammas, ta'rix, qit'a, masnaviy kabi janrlarning yangi qirralari kashf etilgan.

Buxoro adabiy muhiti aholi etnik qatlamidan kelib chiqib, ayrim xos xususiyatlarga ega. Bu yerda zullisonaynlik (ikki tillilik) an'anasining uzoq tarixi bor. Ijod sohiblari, asosan ikki – o'zbek va fors-tojik tilida ijod qilishgan. Ikkala tilda ham ibratli asarlar yaratilgan. Xususan, Vola, Shavqiy, Shukuriy, Xiromiy, Joniy kabi ko'plab ijodkorlar yaratgan adabiy merosni e'tirof etish mumkin.[2]

XIX asrning oxiri XX asr boshlarida Buxoro adabiy muhitida ko'plab tazkiralari yaratilgan. Tazkirachilik maktabining boshida, shubhasiz, Qori Rahmatulloh Voze (1818–1894) turadi. Uning 1871-yilda tuzilgan “Tuhfatul-ahbob fi tazkira-til-as'hob” (“Suhbatdoshlar zikrida do'stlar tuhfasini”) tazkirasida XVIII asrning oxiri XIX asr Turkiston shoirlari haqida ma'lumot beriladi.

Buxoro adabiy muhitida tazkira yozish bilan birga, hajv va she'riy sayohatnomalar yozishga ham katta e'tibor beriladi. Buxoro amirlaridan Amir Haydarning daftardori, jondorlik Mirzo Sodiq Munshiyning “Dahmayi shohon” (“Shohlarning qabrlari”) masnaviyi keyinroq shu yo'nalishdagi bir qator asarlarning paydo bo'lishiga olib keldi. Shu bilan birga, bu davrda sayohatnomalar yozish ham kuchaydi. Ijodkorlardan Jonmuhammad Joniy Sharq adabiyotida qadim an'alariga ega bo'lgan sayohatnoma janriga yangidan ruh berdi.

Tarixdan ma'lumki, XIX asr oxiri XX asr boshlarida Buxoro xonlari saroyida o'ziga xos adabiy muhit yaratilgan bo'lib, ularning atrofida ham adabiy muhit vakillari faoliyat yuritishgan. Shayboniylar hukmronligi yillarida Buxoroda adabiyot, tarix, tarjimonlik, lug'atnavislik ravnaq topdi. Hasanxo'ja Nisoriy, Muhammad Solih, Abdulla ibn Muhammad, Hofiz Tanish Buxoriy, Zayniddin Vosifiy kabi ijodkorlarning yaratgan asarlari bugungi kunda zamonaviy ilm jamoatchiligi tomonidan tadqiqot obyektlari markaziga aylandi.

Ashtarxoniylar sulolasi davrida ham adabiyot va tarixnavislik sohalari taraqqiyoti to'xtab qolmadi. Bu davrdagi muttasil urush harakatlari madaniy hayot taraqqiyotiga katta ta'sir ko'rsatdi. Ammo shunga qaramay adabiyot, san'at va boshqa sohalarda bir qancha iste'dodli ijodkorlar yetishib chiqdi. Jumladan, Sayido Nasafiyning “Hayvonnoma”, Mahmud ibn Valining “Bahr ul-asror”, Muhammad Amin Buxoriyning “Ubaydullanoma”, Abdurrahmon Tole'ning “Tarixi Abulfayzxon”, Muhammadamin ibn Muhammadzamon Buxoriyning “Muhit ut-tavorix”, Turdi Farog'iyning “Subhonqulixon to'g'risida hajviya” kabi asarlarini kiritish mumkin. Ayni zamonda Mahmud ibn Vali, Muhammad Yusuf Munshiy, Mir Muhammad Amin Buxoriy, Muhammad Vafo Karmagi, Abdurrahmon Davlat kabi ijodkorlarning ijod namunalari o'rganilishi va tahlil etilishi natijasida bugungi kungacha ko'plab maqola, tezis, dissertatsiya va monografiyalar nashr yuzini ko'rdi.

Mangʻitlar hukmronligi davrida ham adabiy hayot maʼlum darajada rivojlandi. XVIII asr ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida Muhammad Vafo Karminagiyning “Tuhfayi xoniy”, Muhammad Sharifning “Toj ut-tavorix”, Muhammad Mirolim Buxoriyning “Fathnomayi sultoni”, Mirzo Abdulazim Somiyning “Mangʻit xonlari tarixi”, Ahmad Donishning “Tarjimayi ahvoli amironi Buxoro” kabi tarixiy-badiiy asarlar yaratildi. Mangʻit amirlari, ayniqsa, Amir Haydar davrida diniy va dunyoviy maʼlumotda shayboniy va ashtarxoniyalar hukmdorlardan ustun boʻlgan. Amir Haydar davrida Buxoro islom ilmlari markaziga aylandi. Uning hukmronligi davrida Buxoro arkida hashamatli mehmonxona qurilgan va xalq tashabbusi bilan maktab, masjid, xonaqoh, madrasalar barpo etilgan. Movarounnahr tarixchilari tomonidan amir Haydar davrida Buxoro gullab-yashnaganligi yozib qoldirilgan.

Buxoro amiri Muzaffarxonning oʻgʻli Abdulahadxon “Ojiz” taxallusi bilan sheʼrlar yozgani tarixdan maʼlum. Amir Abdulahadxon oʻqimishli va ziyoli inson boʻlib, ikki tilda – fors-tojikcha hamda oʻzbekcha sheʼrlar yozgan zullisonayn ijodkor sanalgan. Uning Buxoro, Karmana va Shahrisabz shaharlaridagi saroylarida mushoira kechalari tashkil qilingan. Amir Abdulahadxonning saroyi shoirlar, fozillar, yozuvchilar bilan toʻla boʻlgan, ular bilan doimiy mushoira kechalari oʻtkazilgan.

Buxorodagi hukmron sulolarning eng oxirgisi- mangʻitlar davrida adabiy muhit ishtirokchilari – shoirlar, tarixnavislar haqida soʻz ketganda, Mirzo Sodiq Munshiy, Muhammad Sharif Osif, Junaydullo Hoziq, Fitrat Vardonze, Mujrim Obid, Qori Rahmatulloh Voze, Shamsiddin Shohin, Abdurahmon Tamkin Buxoriy, Tolib Tolibiy, Muslihabegim Miskin, Ahmad Donish, Mirzo Somiy, Sahbo Vobkandiy, Sharifjon Maxdum nomlarini alohida eʼtirof etish joiz.

Mumtoz adabiyotimizda buxorolik Abdurahmon Tamkin Buxoriy, Tolib Tolibiy, Muslihabegim Miskin, Shamsiddin Shohin, Sirojiddin Hakim Buxoriy kabi isteʼdodli ijodkorlar faoliyat yuritgan boʻlsa-da, ularning adabiy merosi uzoq vaqt yetarlicha oʻrganilmadi. Ushbu ijodkorlar asarlarida eʼtiqodiy, falsafiy-irfoniy, maʼnaviy-maʼrifiy hamda axloqiy qarashlarni badiiy aks ettirdilar. Ularning ijodini ilmiy tadqiq etish ishlari esa asosan milliy istiqloq davridan boshlab keng rivojlandi. Mazkur ijodkorlar asarlarini ilmiy tahlil qilish natijasida ularning asarlarida inson kamoloti, axloqiy poklik, maʼrifatparvarlik, adolat va ijtimoiy taraqqiyot gʻoyalari yetakchi oʻrin egallashi aniqlanadi. Ayniqsa, XIX–XX asrlarda Buxoro adabiy muhitida yuzaga kelgan maʼrifiy qarashlar jamiyatni yangilash, ilm-fan va taʼlimni rivojlantirishga qaratilganligi bilan eʼtibordir. Bu esa Buxoro adabiy muhitining faqat badiiy hodisa boʻlib qolmay, balki ijtimoiy fikr taraqqiyotida ham muhim rol oʻynaganini koʻrsatadi.

Shuningdek, Buxoro adabiy muhiti vakillari ijodi mumtoz adabiyot anʼanalari bilan yangi davr gʻoyalarining uygʻunlashuvi jarayonini namoyon etadi. Bu jarayon esa oʻzbek adabiyotining tarixiy taraqqiyot bosqichlarini, janr va uslubiy xususiyatlarini yanada chuqurroq oʻrganishga imkon beradi.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, Buxoro adabiy muhiti ijodkorlari asarlarini ilmiy jihatdan tadqiq etish milliy adabiyotimizning boy merosini tizimli ravishda o‘rganish, uning tarixiy ildizlari va g‘oyaviy yo‘nalishlarini aniqlash hamda adabiyotshunoslik ilmida yangi ilmiy xulosalar chiqarishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 20-may kuni Adiblar xiyoboniga tashrifi chog‘ida so‘zlagan nutqi.
2. Adizova I. O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi.–Toshkent: Fan, 2006.70-b.
3. Safarov O . Buxoro adabiy harakatchiligi tarixidan lavhalar. –Buxoro: Durdona, 2015.584 b.

